



## ONA TILI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING SINTAKTIK TAHLIL KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Berdibaeva Gulsanem

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Magistratura yo'nalishi 2-bosqish magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20540047>

### ARTICLE INFO

Received: 20th May 2026

Accepted: 21<sup>st</sup> May 2026

Published: 30<sup>th</sup> May 2026

#### KEYWORDS

*sintaktik tahlil, interaktiv metodlar, ona tili ta'limi, so'z birikmasi, gap bo'laklari, mantiqiy tafakkur, didaktik o'yinlar, nutqiy kompetensiya.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarning sintaktik tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada sintaktik tahlilni quruq, mexanik yodlashdan ijodiy va mantiqiy jarayonga aylantirish mexanizmlari, xususan, "Klaster", "Sintaktik konstruktor", "Keys-stadi" va raqamli didaktik o'yinlar misolida ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida interaktiv metodlarning o'quvchilar savodxonligi va nutqiy kompetensiyasini oshirishdagi samaradorligi asoslangan.*

Zamonaviy til ta'limining bosh maqsadi — o'quvchilarga faqat grammatik qoidalarni o'rgatish emas, balki ularda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli, mantiqiy izchil bayon qilish qobiliyatini yuksaltirishdan iboratdir. Ona tili kursining muhim bo'limlaridan biri bo'lgan **sintaksis** o'quvchilar tafakkurini tizimlashtirishda poydevor vazifasini o'taydi. Biroq, an'anaviy ta'limda gapni sintaktik tahlil qilish (ega, kesim, ikkinchi darajali bo'laklarni shunchaki chiziqlar bilan belgilash) ko'pincha quruq, mexanik xarakterga ega bo'lib qolmoqda. O'quvchilar qoidalarni bilsalar-da, jonli nutqiy jarayonda so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash, sintaktik qurilmalarni uslubiy jihatdan to'g'ri qo'llashda xatolarga yo'l qo'ymoqdalar. Shu bois, ona tili darslarida interaktiv metodlar vositasida o'quvchilarning sintaktik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

**Sintaktik tahlil** — bu gapni yoki gap ichidagi so'z birikmalarini tarkibiy qismlarga ajratib, ularning o'zaro bog'lanishini, gapdagi vazifasini va mantiqiy-grammatik munosabatlarini aniqlash jarayonidir. Oddiyroq tushuntirganda, bu "gapning anatomiyasi"ni o'rganish demakdir. Shifokor organizmni a'zolarga ajratib o'rgangani kabi, tilshunos ham gapni bo'laklarga ajratib, har bir so'zning gapdagi "vazifasi" (kasbi) nimaligini aniqlaydi.

Sintaksis bo'limining asosan uchta katta o'rganish obyekti mavjud. So'z birikmasi, gap va gap bo'laklari. Sintaksis tahlil nima uchun kerak? Tinish belgilarini adashmasdan qo'yich uchun-masalan gap qo'shma gapmi yokki soda gapmi, ichida uyadosh bo'laklar bormi-yo'qmi-bularning barchasi sintaktik tahlil orqali aniqlanadi va shunga qarab vergul qo'yiladi. Matn mazmunini to'g'ri anglash uchun-murakkab, uzun gaplarda fikr chalkashib ketmasligi uchun

gapning asosi (ega va kesim)ni sintaktik ajratib olish gapning asl ma'nosini tezda tushunishga yordam beradi.

**Ko'nikma** (inglizcha "skill", ruscha "navik") — bu biror-bir harakat yoki faoliyatni ko'p marta takrorlash va mashq qilish natijasida **avtomatlashgan (o'ylamasdan, oson bajariladigan)** darajaga yetgan shaklidir. Yana ham sodda tushuntirsak, biror ishni boshida qiynalib, o'ylab-o'ylab qilgan bo'lsangiz, keyinchalik mashq qila-qila hech qanday qiyinchiliksiz, o'z-o'zidan (avtomatik tarzda) bajaradigan bo'lib qolsangiz, demak, sizda shu ish bo'yicha **ko'nikma** shakllangan bo'ladi.

Bilim, Ko'nikma va Malaka: Ularning farqi nimada?

Pedagogika va psixologiyada bu uchta tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning biron bir ishni o'rganish bosqichlarini ko'rsatadi:

1. **Bilim (Nazariya):** Biror ishni qanday qilish kerakligini nazariy jihatdan bilish (Ma'lumotga ega bo'lish).

2. **Ko'nikma (Amaliyot):** Bilgan narsangizni amalda qo'llay boshlash. Bunda harakatlar hali sekin va dqiqatni to'liq jamlashni talab qiladi.

3. **Malaka (Mukammallik):** Ko'nikmaning eng yuqori, avtomatlashgan darajasi. Ish shu qadar mukammal bajariladiki, inson uni qilishda jismoniy yoki aqliy qiyinchilik sezmaydi.

Ta'lim tizimida (ayniqsa hozirgi Milliy o'quv dasturida) o'quvchilarga shunchaki quruq **bilim** (faktlar va qoidalar) berishdan voz kechilib, ko'proq **ko'nikma** shakllantirishga (olgan bilimni hayotda qo'llay olishga) katta urg'u berilmoqda. Chunki hayotda faqat qoidalarni biladigan emas, balki o'sha qoidalarni amalda ishlata oladigan insonlar muvaffaqiyatga erishadilar. Bularning hammasini o'rgatish uchun interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Interaktiv metod** (inglizcha "interactive" – inter – o'zaro, act – harakat qilmoq, harakat qilmoq) – bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro bir-biri bilan faol muloqoti, hamkorligi va harakati asosiga qurilgan o'qitish usulidir. Oddiyroq aytganda, bu shunday dars o'tish usuliki, unda o'qituvchi faqat o'zi gapirib, o'quvchilar jim eshitib o'tirmaydi. Aksincha, hamma teng qatnashadi, bahslashadi, fikr almashadi va bilimni birgalikda qidirib topadi.

Ta'lim metodlarini tushunishni osonlashtirish uchun ularni 3 ta asosiy turga bo'lish mumkin:

1. Passiv metod (O'qituvchi - O'quvchi)

Bunda darsning markazida faqat o'qituvchi turadi. U ma'ruza qiladi, qoidalarni tushuntiradi. O'quvchilar esa faqat tinglovchi va ko'chirib oluvchi (passiv) vazifasini bajaradilar. Masalan: an'anaviy ma'ruza darslari.

2. Faol (Aktiv) metod (O'qituvchi - O'quvchi)

Bunda o'quvchi ham darsga jalb etiladi. O'qituvchi savol beradi, o'quvchi javob beradi. Muloqot ikki tomonlama bo'ladi, lekin o'quvchilar bir-biri bilan muloqotga kirishmaydi, hamma faqat o'qituvchiga qarab intiladi.

3. Interaktiv metod (O'qituvchi - O'quvchi - O'quvchi)

Bu usulda o'quvchilar darsning mutlaq faol ishtirokchisiga aylanadi. O'qituvchi faqat yo'nalish beruvchi (moderator) bo'ladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib, o'zaro munozara qiladilar, muammolarga birgalikda yechim topadilar. Muloqot zanjiri hamma o'rtasida teng ishlaydi.

O'quvchilarda sintaktik tahlil ko'nikmasini interaktiv tarzda shakllantirish lingvistik tahlilni o'yin, muammo va hamkorlik muhiti bilan birlashtirishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida dars jarayonida quyidagi metodik zanjirdan foydalanish tavsiya etiladi:

1. "Sintaktik konstruktor" metodi (Guruhlarda ishlash)

Bu metod o'quvchilarda gapning sintaktik modelini vizual tasavvur qilish va so'zlar o'rtasidagi bog'lanishni amaliy his etishga yordam beradi.

**Jarayon:** Sinf guruhlariga bo'linadi. Har bir guruhga rangli kartochkalarda so'zlar va so'z shakllari (kelishik, egallik qo'shimchalari alohida) beriladi.

**Topshiriq:** Berilgan elementlardan grammatik va mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lgan eng uzun gapni yig'ish hamda gap ichidagi so'z birikmalarini (hokim va tobe so'zni) savollar yordamida aniqlash.

**Afzalligi:** O'quvchi so'zlarni shunchaki daftarga ko'chirmaydi, balki ularni mantiqiy bog'lash orqali sintaktik aloqalarni mexanik emas, ongli ravishda tahlil qiladi.

2. "Sintaktik Domino" didaktik o'yini

O'quvchilarning so'z birikmasi va gap haqidagi bilimlarini sinash hamda tezkor tahlil ko'nikmasini oshirish uchun qo'llaniladi.

**Jarayon:** Kartochkaning bir tomoniga sintaktik savol yoki sxema (masalan: Sifat + Ot yoki Ega va Kesim), ikkinchi tomoniga esa boshqa gapning tahliliy javobi yoziladi. O'quvchilar zanjir hosil qilib, to'g'ri tahlil javoblarini bir-biriga moslashtirishlari kerak.


3. Raqamli interaktiv tahlil (LearningApps va Quizizz texnologiyalari)

Hozirgi raqamli ta'lim davrida o'quvchilarning sintaktik sezgirligini oshirishda AKT vositalaridan foydalanish yuqori samara beradi.

Masalan, LearningApps yoki Topqir.uz platformasida "**Sintaktik guruhlash**" mashqi yaratiladi. Unda gaplar beriladi va o'quvchilar ularni "Sodda yig'iq gap", "Sodda kengaygan gap" yoki "Qo'shma gap" qutilariga ajratishlari kerak. Xato qilingan taqdirda dastur darhol qayta aloqa (feedback) beradi.[4]

Tadqiqot va metodik tajribalar ko'rsatishicha, darslarda interaktiv metodlarning muntazam qo'llanilishi an'anaviy dars o'tilgan sinflarga nisbatan o'quvchilarning sintaktik tahlil ko'nikmalarida sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirdi.

O'tkazilgan pedagogik kuzatishlar natijasida quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:



**Mantiqiy xatolarning kamayishi:** O'quvchilar so'z birikmalarida tobe va hokim so'zni farqlashda kelishik qo'shimchalarining rolini yaxshiroq angladilar. Gapda so'zlar tartibini buzish (inversiya xatolari) 25% ga kamaydi.


**Kreativ fikrlash:** O'quvchilar nafaqat tayyor gapni bo'laklarga ajratishni, balki berilgan sxemalar asosida mustaqil ravishda badiiy va tasviriy gaplar tuza olish ko'nikmasiga ega bo'ldilar.


**Motivatsiyaning ortishi:** Grammatika darslaridagi zerikarli qoidalarni yodlash jarayoni jamoaviy va musobaqa xarakteridagi o'yinlarga aylangani sababli, o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishi ortdi.

Interaktiv metod — bu bolani darsda zerikishdan qutqaradigan, unda mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va nutq madaniyatini o'stiradigan zamonaviy ta'lim qurolidir. Masalan: Topir.uz sayti orqali quyidagicha o'yin yaratamiz.[2]


**Vazifa:** Soda yig'iq gap va soda kengaygan gaplarini toping va ularni o'z qutilariga joylashtiring. Berilgan havola yoki QR kodi orqali o'yinga kiring va vazifani bajaring.


<https://topqir.uz/games/open-box/057e2576-8e4c-4b03-8e42-167e5f6e0176?token=zjhRRwUfjTYHLoE5BuczKbUgNW6xTixq1SgCvHH5Ma4>





**Quti ochish**  
O'yin rejimini tanlang

 **Flashcard**  
Savol → o'ylash → to'g'ri javobni ko'rish

 **Test**  
Savol va variantlar → javob tanlash

⌚ Savol uchun vaqt

Cheksiz
15s
30s
45s
60s

O'yin shunday ikki ko'rinishda beriladi.  
O'quvchilar o'zlarning istagidan kelib chiqib bajarishi mumkin.

O'qituvchilar uchun interaktiv metodlar qay darajada samarali bo'lganini isbotlash uchun o'quvchilar bilimini baholashda quyidagi **Sintaktik diagnostika jadvalidan** foydalanishni taklif qilaman:

O'quvchilarning Sintaktik Tahlil Ko'nikmasini Baholash Mezonlari (Rubrika)

Baholash mezonlari	Past daraja (1-2 ball)	O'rta daraja (3-4 ball)	Yuqori daraja (5 ball)
<b>Gap chegarasini aniqlash</b>	Matndagi gaplarni bir-biridan ajrata olmaydi, tinish belgilarini his qilmaydi.	Gap oxiridagi ohangni ajratadi, lekin murakkabroq gaplarda adashadi.	Matnni ohangiga qarab mustaqil gaplarga to'g'ri ajratadi, tinish belgilarini asoslaydi.
<b>So'z birikmasini ajratish</b>	Hokim va tobe so'zga noto'g'ri savol qo'yadi, ularni bog'lay olmaydi.	Gap ichidan so'z birikmalarini topadi, lekin qaysi so'z qaysinisiga tobe ekanini chalkashtiradi.	Tobe va hokim so'zni aniq topadi, so'zlarning bog'lanish usulini to'g'ri tahlil qiladi.
<b>Sintaktik modellashtirish</b>	Berilgan sxema yoki chizma asosida mustaqil gap tuza olmaydi.	Sxema asosida gap tuzadi, lekin so'z shakllarida (kelishiklarda) xatoga yo'l qo'yadi.	Sxemaga to'liq mos keladigan, uslubiy jihatdan boy va mantiqiy mukammal gaplar tuzadi.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, ona tili darslarida sintaksis bo'limini o'qitish o'quvchining nutqiy va intellektual salohiyatini belgilaydigan eng muhim bo'effitsient hisoblanadi. Interaktiv metodlar vositasida sintaktik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish o'quvchini tayyor bilimlarni iste'mol qilishdan mudofaa qilib, uni izlanishga, mantiqiy mushohada yuritishga va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Dars jarayoniga o'yinli texnologiyalar, konstruktorli modellar va raqamli didaktik topshiriqlarni integratsiya qilish orqali biz ona tili ta'limining amaliy samaradorligini ta'minlaymiz hamda savodli, fikrini erkin ifodalay oladigan komil shaxsni tarbiyalashga erishamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'ulomov A., Ne'matov H. "Ona tili ta'limi metodikasi". — T.: Universitet, 2002.
2. Sayfullayeva R. va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili (Sintaksis)". — T.: Fan va texnologiya, 2010.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Yo'ldoshev J.G', Hasanov S. "Pedagogik texnologiyalar". — T.: Iqtisod-moliya, 2009.
5. Ziyodova T. O'quvchilarning matn yaratish malakasini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2008. (Sintaktik birliklardan matn tuzish ko'nikmasini rivojlantirish bo'yicha).

INNOVATIVE  
ACADEMY